



THE PROBLEM OF SOCIAL CHANGE AND PERSONALITY SOCIALIZATION IN AN INFORMED SOCIETY

Abrorjon Ismatov

Base doctoral student of Namangan State University
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: information society, social changes, socialization of the individual, digital transformation, virtual environment, communication, value system, globalization, spiritual security.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article analyzes the dynamics of social changes within the information society and their impact on the process of individual socialization. The study explores the philosophical and sociological aspects of new social relations emerging as a result of globalization, digital transformation, and the development of information technologies. Particular attention is paid to issues of personal identity, transformation of value systems, virtualization of the communicative environment, and changes in moral and cultural norms. Additionally, the article proposes theoretical foundations and practical mechanisms for ensuring individual freedom, social activity, and spiritual security in the context of an information society.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY O'ZGARISHLAR VA SHAXS IJTIMOIYLASHUVI MUAMMOSI

Abrorjon Ismatov

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti
Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy o'zgarishlar, shaxs ijtimoiylashuvi, raqamli transformatsiya, virtual muhit, kommunikatsiya, qadriyatlar tizimi, globallashuv, ma'naviy xavfsizlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy o'zgarishlarning kechish dinamikasi va ularning shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar hamda shaxsning moslashuv

mexanizmlari falsafiy va sotsiologik jihatdan yoritilgan. Shaxsning identifikatsiyasi, qadriyatlar tizimidagi transformatsiya, kommunikativ muhitning virtual xarakter kasb etishi, axloqiy va madaniy me'yorlarning o'zgarishi kabi masalalar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, axborotlashgan jamiyatda shaxsning erkinligi, ijtimoiy faolligi va ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

ПРОБЛЕМА СОЦИАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ В ИНФОРМАТИВНОМ ОБЩЕСТВЕ

Аброржон Исматов

*Базовый докторант Наманганского государственного университета
Наманган, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информационное общество, социальные изменения, социализация личности, цифровая трансформация, виртуальная среда, коммуникация, система ценностей, глобализация, духовная безопасность.

Аннотация: В данной статье анализируется динамика социальных изменений в условиях информационного общества и их влияние на процесс социализации личности. В исследовании раскрыты философские и социологические аспекты формирования новых социальных отношений, возникающих в результате глобализации, цифровой трансформации и развития информационных технологий. Особое внимание уделено вопросам идентификации личности, трансформации системы ценностей, виртуализации коммуникативной среды, изменению нравственных и культурных норм. Кроме того, предложены теоретические основы и практические механизмы обеспечения свободы личности, социальной активности и духовной безопасности в информационном обществе.

Kirish

Bugungi globallashtirish sharoitida jamiyatning ijtimoiy hayoti chuqur transformatsion jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli transformatsiya, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi inson faoliyatining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, ijtimoiy munosabatlar tizimida yangi tamoyillar shakllanib, an'anaviy qadriyatlar tizimida o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Shu bilan birga, shaxsning jamiyatdagi o'рни, uning ijtimoiylashuv jarayoni ham yangicha ko'rinish kasb etmoqda.

Asosiy qism

Axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiylashuvi avvalgidan murakkabroq va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Avvalo, shaxsning kommunikativ maydoni real muhitdan virtual makonga ko'chdi, bu esa uning ijtimoiy identifikatsiyasi, qadriyat orientatsiyasi va ijtimoiy rollarini belgilash mexanizmlarida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Zamonaviy sharoitda shaxsning ijtimoiylashuvi nafaqat oilada va ta'lim muassasalarida, balki ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali ham amalga oshmoqda. Bunda axborot oqimlarining haddan tashqari ko'pligi, ma'naviy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar va g'oyaviy manipulyatsiyalar muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar va ularning shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'siri falsafiy va sotsiologik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Mazkur masalani o'rganish shaxsning raqamli davrga moslashish strategiyalarini aniqlash, uning axborot muhitidagi xavfsizligini ta'minlash, ma'naviy barqarorligini mustahkamlash kabi nazariy va amaliy vazifalarni belgilab beradi.

Axborotlashgan jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuviga ta'sir etayotgan yangi qadriyatlar tizimini shakllanishi, insonning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir etayotgan ijtimoiy – siyosiy texnologiyalar, jamiyatdagi turli ijtimoiy xavflarni vujudga keltirib jamiyatni yaxlit va bir butun tizim sifatida tushunishga, ehtiyojlar va manfaatlar paradigmasida migratsiya, marginallik, ijtimoiy begonalashuv xodisalarini kengayishiga, ijtimoiy madaniy qadriyatlar dinamikasida salbiy ijtimoiy fenomenlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida axborotlashish xodisasining siyosiy istiqbollarini takomillashtirish, jamiyatda ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, shaxs ijtimoiylashuviga axborot makonining ta'sir obyektlarini ochib berish, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning rolini asoslash, inson kognitiv va aqliy faoliyati ratsionalizatsiya qilish, virtualizatsiya jarayonlarida mafkuraviy konstruktsiyalarning o'рни va ahamiyatini tadqiq etish, jamiyatni virtuallashtirish, axborot jinoyatchiligi, kiber xavfsizlik, virtual qadriyatlarning paydo bo'lish mexanizmlarini falsafiy xususiyatlarini ochib berish, global axborot tarmoqlarini o'sib borishida virtual reallik texnologiyalarining funksiyalarining ijtimoiylashuv jarayonlariga ta'sirini dalillash, shaxs ijtimoiylashuvida sotsial institutlarning vazifalarini takomillashtirish, oila va nikohning shaxs ma'naviy – ahloqiy tarbiyasidagi rolini kuchaytirish va samaradorligini oshirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Qadimgi yunon, xind, xitoy falsafasining klassik vakillari inson va hayoti, mohiyati, olamni asosini tashkil etuvchi omillar mohiyati, davlat va jamiyatning shakllanishi va rivojlanish davri,

idrok va tafakkurning vujudga kelishi, jamiyatda shaxsning amaliy faoliyati va jamiyat bilan ijtimoiylashuviga doir ilmiy-amaliy nazariyalarni ilgari surganlar. Xususan, qadimgi yunon falsafasi maktablaridan bo‘lmish Sofistlar birinchilardan bo‘lib insonni olamning markazi sifatida uning idroki, tafakkuriga, ijtimoiy va siyosiy faoliyatiga katta e’tibor berganlar. Aflotun[1] o‘zining “Davlat” asarida insonning asl mohiyati uning g‘oyalar olamiga mansub qalbidadir. Inson tanasi o‘zgaruvchan jismoniy dunyoga tegishli bo‘lib, u faqat g‘oyalar olamining xira aksidir deydi. Aristotel[2] insonni tabiiy ravishda jamiyatda yashashga intiladigan ijtimoiy va siyosiy hayvon sifatida ta’riflagan.

Axborotlashgan jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlari pedagogik va psixologik jihatdan ta’limiy va tarbiyaviy, xulq va ruhiyat, jamiyatdagi normalarni qabul qilishiga olib keluvchi kompotentlarni shakllantirish va rivojlantirish, oila, maxalla va qarindoshlik aloqalari, axborotlashish sharoitida axborotning shaxs identikligiga, uning mental xususiyatlariga, virtuallashuv va onlaynlashuv, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri kabi yondashuv va omillarni qamrab olsa, sotsiologik jihatdan ijtimoiy munosabatlarga kirishi, shaxsning jamiyat va munosabatlar tizimida tutgan o‘rni, roli, ijtimoiy maqomi, guruh va stratalardagi maqomi, sotsial mobillik orqali ijtimoiy maqoning o‘zgarishi va boshqa omillarini tadqiq etiladi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan shaxs tushunchasi uning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari, rivojlanish va takomillashish jarayonlari, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy me’yorlarni qabul qilishi, ishlab chiqishi, avlodlararo davomiyligini ta’minlashi, vorisiylikni belgilashi, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni paydo qilishi va jamoaviylikni shakllantirishdani roli kabi jihatlari o‘rganilib kelingan. Shuningdek, jamiyatning tartib tamoyillari, xulq atvorni shakllanishi va uning jamiyatga ta’siri va omillarni ham qamrab oladi.

Axborotlashgan jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlari pedagogik va psixologik jihatdan ta’limiy va tarbiyaviy, xulq va ruhiyat, jamiyatdagi normalarni qabul qilishiga olib keluvchi kompotentlarni shakllantirish va rivojlantirish, oila, maxalla va qarindoshlik aloqalari, axborotlashish sharoitida axborotning shaxs identikligiga, uning mental xususiyatlariga, virtuallashuv va onlaynlashuv, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri kabi yondashuv va omillarni qamrab olsa, sotsiologik jihatdan ijtimoiy munosabatlarga kirishi, shaxsning jamiyat va munosabatlar tizimida tutgan o‘rni, roli, ijtimoiy maqomi, guruh va stratalardagi maqomi, sotsial mobillik orqali ijtimoiy maqoning o‘zgarishi va boshqa omillarini tadqiq etiladi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan shaxs tushunchasi uning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari, rivojlanish va takomillashish jarayonlari, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy me’yorlarni qabul qilishi, ishlab chiqishi, avlodlararo davomiyligini ta’minlashi, vorisiylikni belgilashi, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni paydo qilishi va jamoaviylikni shakllantirishdani roli kabi jihatlari o‘rganilib kelingan. Shuningdek, jamiyatning

tartib tamoyillari, xulq atvorni shakllanishi va uning jamiyatga ta'siri va omillarni ham qamrab oladi.

Axborotlashgan jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni murakkab xodisa hisoblanib ularning ayrim jihatlarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

birinchidan, globallashuv jarayonlarining tezkorlashib borishi axborot oqimining kengayishiga olib kelib, kishilarda axborotni qabul qilish va tarqatishni tezlashtirib yubordi. Natijada, axborot manipulyatsiyasi ommalashdi. Dezinformatsiya tarqatish ortib bormoqda;

ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasiga internet, ijtimoiy tarmoqlar, massmediya katta ta'sir o'tkazmoqda. Kishilarning kundalik turmush tarziga ularning kirib borishi va undan foydalanish ko'lamining oshib borishi ijtimoiylashuv jarayonlarini onlayn platformalarga yoki virtual olam deb atalayotgan maydonga ko'chirmoqda. Masalan, "dunyo aholisining 66 foizi internetdan foydalanadi. Bu raqam past bo'lib tuyulishi mumkin, ammo 2005 yilda butun dunyo bo'ylab odamlarning atigi 16 foizi internetdan foydalangan. Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining ko'payishiga aloqa xizmatlari, kompyuterlar va mobil qurilmalar narxining bosqichma-bosqich arzonlashishi, shuningdek, internet infratuzilmasining bosqichma-bosqich rivojlanishi ta'sir ko'rsatmoqda."

uchinchidan, virtuallashuvning o'ziga xos jamiyatga aylanib borishi. Natijada, kishilar guruxlashib borayotgan platformalarda alohida virtual muhit vujudga kelmoqda va uning ma'lum bir normalari, me'yorlari shakllanib shaxs ijtimoiylashuvini belgilab bermoqda. Bugungi kunda keng tarqalgan TikTok, Facebook., Instagram, Bigo Live va boshqa ijtimoiy platformalarning o'z tartib-tamoyillari bor. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek "Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofni temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad- muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi"[3] deya ta'kidlagan edi;

to'rtinchidan, virtual muloqot madaniyatining shakllanishi va qadriyatlardagi o'zgarishlar. Axborotlashishning ortib borishi shaxs identifikatsiyasida yangi mental xususiyatlarni paydo qilib o'ziga xos munosabatlar birligini tashkil etmoqda. Natijada, ijtimoiy ziddiyatlar kelib chiqmoqda. Kiberbulling xodisasi yuzaga kelib yangidan – yangi tendensiyalar sodir bo'lib, shaxsda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni saqlash, jamoaviylik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirish, axloqiy qarorlar qabul qilish va axloqiy relyativizmga qarshi kurashish ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari paydo bo'ldi;

beshtinchidan, an'anaviy qadriyatlardagi o'zgarishlar va madaniy universallashtirish xodisalarining avj olishi. Asrlar davomida rivojlanib, sayqillanib kelgan qadriyatlarga putur

yetmoqda. Ommaviy madaniyat rivoj topmoqda. Madaniy universallashtirish yuz berib, milliy madaniyatning yemirilishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy jamiyatlar deymizmi yoki, rivojlangan dunyo deymizmi barchasida mavjud ijtimoiy muhit bor ekan albatta u yerda ijtimoiy lashish yuz beradi. “Zamonaviy hayotda bolalarning ijtimoiylashuvining o‘zgargan shartlari ijtimoiylashuvning yangi reallikni o‘rganishni talab qiladi. O‘zbekiston sharoitida bolalar ijtimoiylashuvining asosiy institutlari – oila, maktab va mahalla hamkorligi alohida o‘rin tutadi”[4]. Darhaqiqat, shaxs ijtimoiylashuvidagi asosiy institutlar oila, maktab va maxalla hamkorligi hozirgi zamonaviy insonning ta’lim-tarbiyasida muhim atribut desak to‘g‘ri bo‘ladi. Boisi, har bir davrda ushbu institutlar jamiyat taraqqiyotida asosiy rolni o‘ynab kelgan va shaxsning deyarli umri shular ichida kechgan.

Chunki, “har bir ijtimoiy-tarixiy davrda yoshlar muammosi, ma’naviyatini yuksaltirish, ijtimoiy hayotda yoshlar ishtirokini faollashtirish, jamiyatda yoshlarning o‘rni, ularda axloqiy qirralarni rivojlantirish kabi masalalar tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator ishlar qilingan”[5].

XXI asrga kelib dunyo taraqqiyoti tezlashib ketdi. Industrial jamiyatlar o‘rniga postindustrial jamiyatlar shakllanmoqda. Insonning texnik bilimlari rivojlanib sayyoralararo tadqiqotlar olib bormoqda, yangi turdagi biologik va ximiyaviy qurol turlari yaratilmoqda, atom bombasi ustidagi izlanishlar kengayib bormoqda, geosiyosiy munosabatlarda ziddiyatlar ko‘payib bormoqda, mintaqaviy mojarolar avj olmoqda.

Oilaviy va mahalliy qadriyatlar yemirilib universallashtirish jarayonlari rivoj topmoqda. Axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy o‘zgarishlari dunyoning hohlagan mintaqalariga tezkorlik bilan yetib bormoqda. Global dunyo turli murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Natijada, “hozirgi zamon globallashtirish sharoitida turli madaniy an’analarga ega xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi bir-biriga bog‘liq holda dolzarflik kasb etib, har bir xalqning milliy o‘ziga xosligini muhofaza qilish va saqlab qolish yo‘nalishini izchil davom ettirish, shu bilan birga dunyoviy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarining ilg‘or jihatlarini o‘zlashtirib borishni talab etmoqda. Bu masalalar jamiyatda o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy madaniyatni shakllantirish muammosini to‘g‘ri hal qilib olish bilan bevosita bog‘liq”[6] holda kechmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, global axborotlashish davri boshlandi, biz bu davrda istaymizmi yoki yo‘q ana shu axborotni olamiz va tarqatamiz, virtual tarmoqlar, internet platformalar rivojlanib bormoqda, qolaversa, sun’iy idrok takomillashib boryapti, bir so‘z bilan aytganda dunyo raqamli dunyo tomon harakatlanmoqda. Shu boisdan kishilar taakkuri, dunyoqarashi, ulaning o‘ziga xos turmush tarzida an’ana va qadriyatlarida transformatsiya jarayonlari yuz berishini tabiiy xalq sifatida qabul qilish lozim va bunda shaxs ijtimoiylashuvini

belgilovchi omillarni falsafiy, pedagogik, ijtimoiy jihatlarini aniqlash, ijtimoiylashuvning milily identifikatsiyaga ta'sirini ochib berish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiylashuv mexanizmlarini tubdan o'zgartirib, yangi kommunikativ imkoniyatlar bilan birga, ma'lum xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Raqamli transformatsiya shaxsning bilim olish, ijtimoiylashuv, mehnat qilish va o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirdi, biroq shu bilan birga, an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy institutlar ahamiyatini pasaytirib yuborish xavfini keltirib chiqardi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni endilikda virtual makon bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ma'naviy barqarorligini ta'minlash uchun tizimli yondashuv zarur. Xususan, ta'lim tizimida raqamli madaniyatni shakllantirish, yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish, axborot savodxonligini oshirish va g'oyaviy immunitetni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Umuman olganda, axborotlashgan jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi masalasini o'rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki ijtimoiy amaliyot nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Ushbu jarayonni chuqur tahlil qilish shaxsning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarni globallashuv sharoitida asrab-avaylash uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Платон. Государство. Москва: Академический проект, 2015. – 398 с.
2. Аристотель. Евдемова этика. Москва: ИМ.РАН, 2005, -С.271. (448)
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.114.
4. Даминова Н.Қ. Замонавий оламда шахснинг ижтимоийлашуви. Academic research in educational sciences. Volume 2. ISSUE 2. 2021. -p.277.
5. Машарипова Г.О. Ёшларда ғоявий иммунитетни ривожлантириш масалалари. Academic research in educational sciences. Volume 2. ISSUE 1. 2021. -p.214.
6. Салиева З.Т. Ўқувчи-ёшларда маънавий маданиятни шакллантиришнинг айрим методологик масалалари. Замонавий таълим / Современное образование 2016. №11. -Б. 4.